



TABIIY FANLARNI O'QITISHDA INOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

To'xtaboyeva Sayyora Abdulboqievna

FarDU qoshidagi akademik
litseyi biologiya fanini o'qituvchisi

Biz yashayotgan glaballashuv jarayonida har bir soxada ilg'or ishlar amalga oshirilmoqda buni zamonning o'zi talab etmoqda yosh avlod har soxada ildam. Chunki jamiyatimiz axborot oqimiga boy. Jamiyatimiz talab etayotgandek har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalab yetishtirishda o'qituvchining o'rni beqiyosdir. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishda yosh avlodga chuqur bilim beradigan, fikrlash doirasi keng, kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan, huquqiy demokratik jamiyat a'zolarini ozod va erkin yashashga, mustaqil fikr yuritishga o'rgata oladigan yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash asosiy vazifa qilib belgilangan. Zamon shiddat bilan o'zgarib borar ekan, ta'lif sohasi ham u bilan barobar o'zgaradi va o'qituvchidan o'z faoliyatini o'zgartirishni talab etadi. O'zbek pedagogikasi rivojiga katta hissa qo'shgan Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "Bolalarda fikrlash qobiliyatini o'stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug'ullanish benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Hozirgi davr har bir kasb egasidan tadbirkorlik, bilimdonlik va kasbiy mahoratni takomillashtirib borishni talab etadi. Bugun o'qituvchining asosiy vazifasi faqat ta'lif berishgina emas, balki yangi inovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilishi boshqaruvchilikdan ham iborat bo'lib, u ta'lif jarayonini to'g'ri tashkil qilish va boshqarishni talab etmoqda. Bu ishlarni amalga oshirish maqsadida mamlakatimizda keng ishlar amalga oshirilmoqda xususan Xalq ta'limi vazirligi hamda BMTning Bolalar jamg'armasi (YUNISEF) hamkorligida "Bolaga do'stona munosabatdagi maktab" dasturi asosida samarali ishlar olib borilmoqda. Bu dasturda darslarni samarali tashkil etish, interfaol metodlardan o'rinli foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan maktab va akademik litseylarda o'quvchilarga ta'kim berishda interfaol usullarni qo'llash bu fanni tushunishlari oson bo'lishini taminlaydi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda huquqiy demokratik davlat qurish uchun ta'lif-tarbiya ustuvorligi ta'minlanibgina qolmay, balki ijtimoiy buyurtma sifatida butun jamiyatni pedagoglashtirish yuzaga keldi. Bu yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazish jarayonini yangi pedagogik tadbirlar bilan ta'minlash zarur deganidir. Pedagogik texnologiyaning mamlakatimiz ta'lif-tarbiya soxasiga to'g'ri joriy qilinishi: - jamiyatimiz intelluktual salohiyatini ro'yobga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi; - jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi; - insonni kamolot sari yetaklab, hayotda o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi; - fuqarolik jamiyatni shakllanishini hamda huquqiy demokratik davlat qurishni ta'minlaydi; - ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobjiy ta'sir etib, mamlakatimizda mavjud ijtimoiy muhit butunlay yaxshi tomonga o'zgaradi. Pedagogik texnologiya hozirgi zamondagi didaktika va pedagogika taraqqiyotining mahsuli. Uni pedagogikaning hozirgacha mavjud bo'lgan hamda takomillashib kelayotgan barcha asosiy yo'nalishlari bo'yicha amaliy vazifalarni yanada yuqoriroq darajada amalga oshirish yo'lidagi yangi bosqich deb hisoblash mumkin. Shu nuqtai nazarlardan pedagogik

texnologiyani, avvalo, hozirgi pedagogika fani taraqqiyoti natijasida hosil bo'lgan yangi yo'nalish deb hisoblagan holda, uning o'ziga xos bo'lgan tamoyillari, qoidalarini chuqur o'rganib borish, pirovardida qonuniyatlarini aniqlash yo'lidagi muammolarni yechish lozimligi ko'rinish turibdi. Pedagogik texnologiya, avvalo, ta'lim-tarbiyani yanada rivojlantirish ehtiyojlarini qondirish yo'lidagi insonlar (pedagoglar, ota-onalar, jamoatchilik) faoliyatidan iborat ijtimoiy hodisa hisoblanishi lozim.

Biologiya fanini oqitishda inovatsiyalarni qo'llash asosan yosh avlodga uning bilim olishiga samarasi ta'sir qilishi ularni fanga qiziqishlarini oshirishi mumkin. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish har bir o'quvchining sifatli ta'lim olishini ta'minlaydi. O'quvchi uchun erkin muhit va o'z fikrini erkin bayon etish imkoniyatlarini yaratadi. Ta'lim-tarbiya sohasida pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish o'zida falsafa, psixologiya va pedagogikaning insonparvarlik g'oyalalarini mujassamlashtiradi. Bu g'oyalarning diqqat markazida mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongi yashaydigan komil insonlarni voyaga yetkazish maqsadi va vazifasi turadi. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish orqali pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlikning vujudga kelishi, o'quvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod qilishi va o'z-o'zini rivojlantirishga qulay ijtimoiy-psixologik va do'stona muhit yaratiladi. Bu jarayonda o'quvchi o'z o'quv faoliyatining subyekti sanaladi va o'qituvchi bilan yagona ta'lim jarayoninig ikkita subyekti hamkorlikda o'quv tarbiyaviy vazifalarni hal etadi. O'qituvchi pedagogik texnologiya asosida ishlashi uchun, avvalo, o'quvchida motivni shakllantira olishi lozim.

Biologiya tirik mavjudotlarning atrof-muhit bilan o'zaro aloqalarini o'rganuvchi ilmiytadqiqot fani hisoblanadi. Bir o'lcham tasvirlariga ega darslik yordamida o'rganishda barcha o'rganlar qismlarini va ularning funksiyalarini tushunish qiyin. Biologiya darsliklarida tasvir va diagrammalar ko'p. Odam tanasining uch o'lchamda tasvirlangan va har bir o'rgan faoliyati aks ettirilgan virtual taqdimotini tasavvur qiling. Bunday taqdimotlarni o'quvchilar uzoq vaqt esda saqlaydilar. Hujayraning tuzilishini darslikdan o'qib tushunish birmuncha murakkab. Ko'rgazmali tasvirlardan foydalanilsa, tasavvurlar yanada yorqin va tushunarli bo'ladi. Rossiya Federatsiyasida olib borilayotgan biologik ta'limni takomillashtirishda innovatsiyalardan foydalanishning optimal variantlarini o'zlarining asosiy ish tajribalari hamda ilmiy-tadqiqot ishlari natijalariga tayangan holda ta'lim jarayoniga tadbiq etilayotgani biologik ta'limning takomillashtirilishidagi halqaro talablarga qo'shilayotgan ijobiy hissa deb hisoblaymiz. Tadqiqotchi A.A. Jurin tadqiqotlarida ham asosan shundey interfaol usullarni qo'llash samarasi bo'yicha ishlar amalga oshirgan. Biologiya fanini o'qitishda shunday so'rovnama 50 nafar o'quvchi o'rtasida olib borilgan, quyidagicha natija berdi: 65% o'quvchi "Genetika" fani bo'yicha yangi informatsiyalarni do'stlari va sinfdoshlaridan, 41% o'quvchi esa televideniya va ommaviy axborot vositalari orqali olinishi degan ma'lumotni berdi. Bundan ko'rinish turibdiki bugungi kunda dars jarayonida ko'proq pedagogik inovatsiyalarni qo'llash orqali yoshlarni jalg qilish va ularga samarali bilim berish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

- 1.O.Tolipova Biologiya talim texnologiyasi T-2002
- 2.O.Tolipova,T.Gofurov Biologiya o'qitish metodikasi T-2007.
- 3.O.Tolipova, T.Gofurov Biologiya o'qitish metodikasi T-2010.